

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Namangan to‘qimachilik sanoati  
instituti rektori



*Q. Xoliqov* Q.Xoliqov

2024 yil “07” 08

**60210400 – “Dizayn (to‘qimachilik va yengil sanoat dizayni)” ta’lim  
yo‘nalishi uchun**

**XORIJIY VA NODAVLAT OLIY TA’LIM  
MUASSASALARIDAN O‘QISHNI KO‘CHIRISH  
BO‘YICHA IJODIY IMTIHON  
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Dastur Namangan to'qimachilik sanoati instituti (NamTSI) o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan (2024 yil "07" 06, 11 - sonli majlis bayoni).

**Tuzuvchilar:**

NamTSI "Dizayn" kafedrası mudiri M.Nazarova

NamTSI "Dizayn" kafedrası katta o'qituvchisi  
R.A.Abduraxmonov

NamTSI "Trikotaj texnologiyasi" kafedrası dotsenti  
Sh.Sh.Shog'ofurov

**Taqrizchi:**

K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizain instituti (MRDI) "Libos dizayni" kafedrası mudiri  
U.M.Xodjayeva

## KIRISH

O'zbekistonda to'qimachilik va moda industriyasini rivojlanishi, kichik va o'rta biznesining davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, yuqori sifatli eksklyuziv va dizayn mahsulotlariga talabni ortishi, dizaynerlar faoliyatiga cheksiz imkoniyatlar beruvchi matolar va uskunalari yangi avlodining paydo bo'lishi – bularning barchasi yangi namunadagi mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, an'anaviy liboslar, ularning tarixi va bezaklariga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda ibratli an'ana va qadriyatlarimizni asrab avaylash, madaniyatimiz va san'atimizni tobora rivojlantirish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning badiiy did va tafakkurini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko'nikmalarini o'zida namoyon etuvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishi va uslubini topishda, ayniqsa badiiy loyihani yechimi, kostyum kompozitsiyasini mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi uchun muhim bo'lib, ijodiy tassavurni, obrazli-konstruktiv taffakur va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini aniqlashda, hamda malakali dizaynerlar tayyorlash uchun **“Kompozitsiya”** fani zaruriyati juda katta.

60210400 – “Dizayn (to'qimachilik va yengil sanoat dizayni)” ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi o'rta maxsus va kasb-hunar kollejaridagi dizayn fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. 60210400 – “Dizayn (to'qimachilik va yengil sanoat dizayni)” ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar ijodiy imtihonda chizmatasvir va kompozitsiya fanidan amaliy ish bajaradilar. Bajarilgan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

<b>Jami ball</b>	<b>Jumladan:</b>
	<b>“Kompozitsiya” fanidan</b>
<b>156</b>	<b>156</b>

## FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Kostyumni yaratish – bu kiyimning xilma xil shakl va konstruktsiyalarini doimo izlash jarayonidir, liboslar eskizlarini ishlash va loyihani materialda bajarishgacha bo'lgan bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

**Kompozitsiya** – barcha san'at turlarini asosiy tushunchasi bo'lgani uchun talabalar ushbu tushunchaga oid qoidalarni bilishi kerak.

Kompozitsiya kursi talabalarda obrazli o'ylashni, fantaziyani, didning takomillashuvini hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, dizaynerlik faoliyati mobaynida korxonalarda liboslar va to'qimachilik matolarini badiiy loyihalash, milliy moda va uslub yaratishda kasbiy bilim va ko'nikmalarni hosil qiladi.

Ijodiy imtihonning asosiy maqsadi – institutga kiruvchining kasbiy layoqatini, ijodiy qobiliyatini va badiiy tayyorgarlik darajasini, obrazli-konstruktiv tafakkurini hamda yangi modellar eskizlarini ishlab chiqishi ko'nikmalarini aniqlash. Abituriyentning quyidagi bilimlarini va qobiliyatini aniqlashdan iborat:

- shakllarni emotsional va hissiy qabul qilish, ifodali va mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- fazoviy va konstruktiv fikrlash mahorati;
- original obraz, g'oyani topa olish, fantaziya, tasavvur qilish qobiliyati;
- shaxsiy mualliflikdagi eskiz va badiiy grafika;
- emotsional ranglar holatini, syujet va tasavvur, ranglar gammasini idrok qilishi va ifodalashi;
- berilgan mavzuning kompozitsiyaviy va rang yechimlarining o'zaro uyg'unligi.

## **1. 60210400 – “Dizayn (to'qimachilik va yengil sanoat dizayni)” ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlar uchun fanlardan ijodiy imtihon dasturi**

### **1.1. “Kompozitsiya” fani bo'yicha**

Imtihonda abituriyentlar tomonidan turli texnikada (akvarel, grafika, kollaj, applikatsiya va b.) berilgan mavzu bo'yicha milliy liboslar to'plami kompozitsiyasi bajariladi. Libos matolarida qo'llanilgan ornamentlarga ham e'tibor qaratiladi.

Kompozitsiya 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog'ozda (vatman) **5 soat** mobaynida bajariladi. Har bir abituriyentning kompozitsiya ishlari bitgandan so'ng maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, baholash mezonini asosida maksimal **63**-balli shkala bo'yicha baholanadi.

1. Kompozitsiya bo'yicha imtihon maxsus jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi.

2. Auditoriyaga kirishdan avval abituriyent raqam olib mazkur raqamdagi stolga borib joylashadi.

3. Abituriyent amaliy ish bajarish uchun qabul komissiyasi tomonidan 50x70 formatdagi planshetga tortilgan qog'oz muxrlanadi. Har bir abituriyentga imtihon varaqasi rasmiylashtiriladi.

4. Imtihonda qatnashishga imtihon varaqasi va pasport asosida ruxsat beriladi. Imtihonga begona shaxslarning kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Vazifalarni berish, ishni bajarish oldidan imtihon oluvchining bajariladigan ish tartibini tushuntirishi, titul varaqasini to'ldirish kabilar ushbu ishni bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt reglamentiga kiradi.

6. Har bir auditoriyada abituriyentlar bilet tanlash asosida bir mavzu tanlaydilar.

Imtihonda har bir abituriyent quyidagi zarur jihozlarga ega bo'lishi kerak:

- 50x70 hajmdagi qog'oz (vatman) tortilgan planshet;
- har xil yumshoqlikda grafit va rangli, uchi o'tkirlangan qalamlar;

- avtomat tarzda ishlaydigan 0,5 va 0,7 mm qalinlikdagi grifellarga ega qalamlar (dozatorlar);

- yumshoq o'chirg'ichlar;

- qalam ochish uchun ochqich yoki skalpel;

- kompozitsiyani rangda bajarish uchun akvarel, guash bo'yoqlari, moy qalam, geleviy ruchkalar, palitra va suv uchun idish.

Bundan tashqari kompozitsiyani bajarayotganda abituriyent o'zining turli texnik qobiliyatlariga bog'liq boshqa instrumentlarga ham ega bo'lishi mumkin, lekin quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- moy bo'yoq asosidagi bo'yoqlar va qurushi uzoq vaqtni (15 minutdan ortiq) talab etadigan bo'yoqlar;

- maxsus qotish jarayonini talab qiladigan pastel va chizilgan kompozitsiya yengil o'chib ketadigan badiiy materiallardan foydalanish.

7. Zarur bo'lgan hollarda abituriyentning arizasiga muvofiq buzilgan qog'oz almashtirib berilishi mumkin, bunda dastlabki qog'oz yo'q qilinadi. Yangi berilgan qog'oz ham shtampili bo'lishi lozim. Abituriyent qog'ozni almashtirganda vazifa uchun ajratilgan vaqtga qo'shib bermasligi to'g'risida oldindan ogohlantiriladi.

8. Abituriyentlarga bajargan ishiga imzo, biror bir belgi qo'yish va suratga olish qat'iy an taqiqlanadi.

9. Bajarilgan ish qabul komissiyasiga topshiriladi va ular shifrlangandan so'ng fan komissiyasi tomonidan tasdiqlangan baholash me'zonlariga muvofiq ball tizimida baholanadi. Qo'yilgan ballar so'z bilan ham yoziladi va baholar qog'ozning ish bajarilgan tomonida bo'lishi lozim.

10. Baholar imtihon varaqasi va imtihon qaydnomalariga ko'chiriladi. "Kompozitsiya" fani bo'yicha imtihon bahosi natijalari 1-3 kun muddatda institut rasmiy "web-saytida" e'lon qilinadi.

11. Baholangan ishlar apellyatsiya o'tkazish uchun qabul komissiyasida qoladi, (abituriyentlarga qaytarib berilmaydi).

12. Abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkil etilgan sanitariya gigiyena qoidalarini so'zsiz bajarishlari shart. Mazkur qoidalarga abituriyentlar tomonidan amal qilmaslik imtihon tartiblarini buzgan hisoblanadi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuzilib chetlashtiriladi.

**"Kompozitsiya" fanidan imtihon topshiruvchi abituriyentlar  
quyidagi shartlarni bajarish lozim:**

- kompozitsiya mavzusi original jihatdan topilganligi, ishning kompozitsion g'oyaviy mazmundorligi;

- badiiy ifodaning mutaxassislikka mosligi, turli shakllarning kompozitsion jihatdan to'g'ri ishlatilganligi;

- matolarda ifodalangan ornamentlarni mavzuga mosliga va badiiy yechimga ega ekanligi;

- chizilgan eskizlarning bir-biriga uyg'unligi, elementlarning to'g'ri topilganligi;

-berilgan topshiriqning mazmuni, ma'nosi to'liq ochilganligi, bajarilgan ishni ashyoda noziklik bilan ishlanish mahorati, ishning tugatilganligi.

**60210400 - «Dizayn (kostyum)» ta'lim yo'nalishi kompozitsiya bo'yicha ijodiy imtihoni uchun mavzular ro'yxati**

1. Romantik uslubidagi ayollar bashang kiyimi to'plami.
2. Pret-a-porte uslubidagi ayollar kundalik kiyimi to'plami.
3. Sport uslubidagi ayollar kiyimi to'plami.
4. Klassik uslubidagi ishbilarmon ayollar kostyumi.
5. O'zbek milliy kostyumi elementlarini qo'llab yoshlar kiyimi to'plami.
6. Milliy uslubdagi ayollar kiyimi to'plami.
7. Bolalar kiyimi to'plami.
8. Erkaklar sport uslubidagi kiyimi to'plami.

**60210400 – “Dizayn (to'qimachilik va yengil sanoat dizayni)” ta'lim yo'nalishining ijodiy imtihonda “Kompozitsiya” fani bo'yicha abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

<b>№</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Maksimal ball</b>	<b>Abituriyent to'plagan ball</b>
<b>1.</b>	<b>Kostyum kompozitsiyasini qog'ozga kompozitsion to'g'ri joylashtirish.</b>	<b>25,0</b>	
a)	tasvir qog'ozda kompozitsion to'g'ri joylashtirilgan	25,0	
b)	qisman kompozitsion xatoga yo'l qo'yilgan	12,5	
c)	to'g'ri komponovkaning yo'qligiga	0	
<b>2.</b>	<b>Kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g'oyaviy yechimi va kreativligi.</b>	<b>28,0</b>	
a)	kompozitsiyaning mavzuga mos tuzilganligi, g'oyaviy yechimi ifodalanganligi va kreativ yondashuv mavjudligi	28,0	
b)	kompozitsiya mavzuga mos kelganda, zamonaviy moda yo'nalishi va dizayn talablariga qisman mos kelganda va kreativ yondashuv mavjudligi	14,0	
c)	kompozitsiya mavzuga mos kelmaganda, kreativ yondashuv mavjudmasligi	0	
<b>3.</b>	<b>Tasvirlanayotgan inson qomatlarini va kompozitsiya detallarini to'g'ri proporsiyalarda ifodalanganligi</b>	<b>25,0</b>	
a)	tasvirlanayotgan inson qomatlarini va kompozitsiya detallarini proporsiyalari to'g'ri topilgan	25,0	

B)	perspektiva va kompozitsiya qoidalariga qisman rioya qilingan, proporsiyalarni aniqlashga harakat qilingan, kamchiliklar mavjud	12,5	
c)	perspektiva va kompozitsiya qoidalariga rioya qilinmagan, proporsiyalari noto'g'ri topilgan	0	
<b>4</b>	<b>Kostyum elementlari va materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini to'g'ri topilganligi</b>	<b>28,0</b>	
a)	Kostyum elementlari va materiallar fakturasini ishlashda rang munosabatlarini to'g'ri topilganligi, soya – yorug'lik qonuniyatlariga amal qilingan, materiallar fakturasi ko'rsatilgan	28,0	
B)	rang munosabatlari qisman to'g'ri topilgan, materiallar fakturasini ko'rsatishga harakat qilingan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	16,0	
c)	rang munosabatlari qisman to'g'ri topilgan, ammo ular tasvirida kamchiliklar mavjud	12,0	
d)	rang bilan ishlashda soya – yorug'lik qonuniyatlariga umuman amal qilinmagan yoki ular noto'g'ri ko'rsatilgan, materiallar fakturasi ifodalanmagan	0	
<b>5</b>	<b>Liboslar to'plamining konstruktiv-dekorativ yechimi aniq ifodalanganligi</b>	<b>25,0</b>	
a)	liboslarda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) to'liq aks ettirilgan	25,0	
B)	liboslarda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) qisman ko'rsatilgan	12,5	
c)	liboslarda konstruktiv-dekorativ yechimi (chiziqlari, bezaklari, aksessuarlari) umuman ko'rsatilmagan	0	
<b>6</b>	<b>Kostyum kompozitsiyaning to'liq tugallanganligi</b>	<b>25,0</b>	
a)	kostyumlar kompozitsiyasi to'liq umumlashtirilgan va yakunlangan	25,0	
B)	kostyum kompozitsiyasi qisman umumlashtirilgan va yakunlangan	12,5	
c)	kostyum elementlari ustida ishlanmagan, yaxlitlik holatiga keltirilmagan, liboslar kompozitsiyasi tugallanmagan	0	
	<b>Jami</b>	<b>156</b>	

**Izoh:** Abituriyentlarning natijalarini baholash, ko'rsatgan natijalariga muvofiq 100 (yuz) dan 1 (bir) ulushda baholanadi.

Ushbu talablarning barchasini bajargan abituriyentlar eng yuqori **156** ballga ega bo'ladi.

Ijodiy imtihonlar bo'yicha ijodiy sinovlar o'tkazuvchi komissiya a'zolari mutaxassislik kafedralari professor-o'qituvchilari tarkibidan jalb etiladi.

## **2. Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan ijodiy imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Apellyatsiya tartibiga ko'ra arizachining faqat o'z ishini baholanishi doirasidagi e'tirozi qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi.